



O'QITUVCHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Bobonazarova S.

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Ashurova S.

Qarshi davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: ta'lim, innovatsion yondashuv, mustaqil fikrlash, shakl, metod, vosita.

Ключевые слова: образование, инновационный подход, самостоятельное мышление, форма, метод, инструмент.

Key words: obrazovanie, innovative approach, independent thinking, form, method, instrument.

Globalashuv va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Bunday o'zgarishlardan biri ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvdir.

Adabiyotlarda "Yangi tartib-qoida", "yangilik", "innovatsiya" tushunchalarining ma'naviy mazmunini aniqlashning turlicha talqinlari mavjud. Hozirgi zamon tilida bu so'zlar yetarlicha o'xshash va ular yangi qoida, yangi tartib, usul yoki ixtiro sifatida talqin etiladi [1, 34-35].

Biroq har qanday tasniflash tegishli mezonlarning bo'lishini talab etadi. R.Marklund "tiplashirishning yagona mezoni, bu –ta'limda yangi tartib-qoidalar jarayoni amalga oshiriladigan daraja"- deb hisoblaydi.

Bunday mezonlar bir nechta bo'lib, ular majmuiga quyidagilar kirishi mumkin, ya'ni:

birinchi – innovatsiya amalga oshiriladigan soha;

ikkinchi – yangi tartib-qoidani amalga oshirish usuli;

uchinchi – innovatsiyalarning kengligi va chuqurligi;

to'rtinchi – innovatsion jarayonning ro'y berish bazasi [2, 48].

K.Rojers yangilikni bunday ta'riflaydi: "Yangilik – bu aniq bir shaxs uchun yangi bo'lgan g'oya bo'lib, u ob'ektiv yangi bo'ladimi yoki yo'qmi buning



ahamiyati yo‘q. Biz uni g‘oya yaratilgan yoki birinchi bor foydalanilganidan beri o‘tgan vaqt ichida ta‘riflaymiz”. S.Mayls esa “Yangilik – maxsus yangilik, maxsus o‘zgarish bo‘lib, biz sistematik maqsadlarni amalga oshirishda undan samaradorlik kutamiz” - deb ta‘riflaydi [3,56].

Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda **“Reklama” metodidan** foydalandik. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

1. o‘quvchilar guruhlariga ajratiladi.
2. o‘quvchilarga ertak yoki biror bir asarning mavzusi e‘lon qilinadi.
3. o‘quvchilar mavzudagi jarayonlarni, undagi qahramonlarni qisqa fikrlar bilan reklama qiladilar.
4. boshqa o‘quvchilar esa ertak yoki asarning nomini topishadi.
5. mazmunli, aniq va qiziq reklama tayyorlagan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Mavzu: Qarg‘a bilan tulki masali

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy maqsad:

Qarg‘a va tulki masali yuzasidan o‘quvchilar ga keng tushuncha berish, masal haqida ma‘lumotlar berish, tabiatni asrab-avaylashga o‘rgatish, dars davomida o‘quvchilarda nutq malakasini shakllantirish,

b) tarbiyaviy maqsad:

Masalda berilgan ijobiy sifatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish, salbiy jihatlardan ogoh bo‘lishga o‘rgatish. Do‘stlik tartib-intizomga rioya qilishga o‘rgatish, kamtarlik, to‘g‘ri gapirish, shirinsuhanlik, rostgo‘ylik fazilatarini tarbiyalash;

v) rivojlantiruvchi maqsad:

O‘quvchilarda erkin va mantiqiy fikrlash, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ularni hozirjavoblikka o‘rgatish.

Darsning turi:

Yangi bilim beruvchi , bilimlarni mustahkamlovchi

Dars shakli: noan‘anaviy dars

Dars metodi: suhbat , izlanish metodi , savol javob , baxs-munozara

Dars metodikasi: REKLAMA metodi,

Dars jihozi: chizmalar, hayvonlarni ifodalaydigan rasmlar, tarqatmali kartochkalar, rag‘batlantirish uchun jetonlar, ko‘rgazmali qurollar, darslik, sinf taxtasi, proyektor, kompyuter;

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism

2. O‘tgan darsni so‘rash

O‘qituvchi: – Bolajonlar biz o‘tgan darsiimizda nimalarni o‘rgangan edik?

Botirova Shaxlo: – Somon, cho‘g‘ va loviya ertagini o‘rgangan edik. Ertakni o‘qib, ertak asosida rebus tuzish, rasmlarni chizib kelish kerak edi.

O‘qituvchi: – uyga berilgan topshiriqlarni hammamiz tayyorladikmi? O‘qituvchi o‘tgan mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga tarqatmalar tarqatadi. Bu tarqatmalar REKLAMA metodi asosida tayyorlangan bo‘lib unda quyidagicha yozilgan bo‘ladi.

Reklama qiling: LOVIYA
Reklama qiling: SOMON
Reklama qiling: CHO‘G‘

O‘quvchilar tarqatmalarni olgandan so‘ng o‘sha shaxs yoki predmetga xos sifatlar, hatti harakatlar, asardan parchalar, rolli ko‘rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak bo‘ladi. Buni esa qolgan o‘quvchilar nima yoki kim haqidagi sifatlar ekanligini aniqlaydilar. O‘quvchilar baholanadilar.

O‘qituvchi: – Ertak qahramonlarini sanab bering.

- Loviya, somon, cho‘g‘ qanday uchrashib qolishdi?
- Loviya va somonning suxbatini gapirib bering.
- Somon nimaga daryoga tushib ketdi?
- Loviyaning qilgan ish to‘g‘rimi?
- Do‘stlik haqida maqol bilasizmi?
- Somon, cho‘g‘ va loviyani haqiqiy do‘stlar deya olamizmi?

O‘quvchilar savollarga javob beradilar, rag‘batlantiriladilar. O‘tgan mavzu yuzasidan bajarilgan rebuslar tekshiriladi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladilar. O‘tilgan dars shu tariqa takrorlanadi.

3. Yangi mavzuning bayoni:

O‘qituvchi yangi mavzu “Qarg‘a va tulki” masalini ifodali o‘qib beradi.

O‘qituvchi: Bolajonlar, deylik sizlarni kelajakda 3ta kasb kutmoqda: uchuvchi bo‘lish, jurnalist bo‘lish va harbiy bo‘lish. Aytingchi kim qaysi kasbni tanlagan bo‘lard. Tanlangan kasblar bo‘yicha o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadilar va o‘zlariga nom tanlaydilar.

Chaqqonlar. Topqirlar. Ziyraklar.

4. yangi mavzuni mustahkamlash



2. Sulstonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Kenjayeva.D.T. Ways to use the national-spiritual heritage of Eastern thinkers in the development of independent thinking of preschool children. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 4, Month 2021: 54-60
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyoti. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
5. www.edu.uz
6. www.ziyonet.uz

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘qituvchi faoliyatini tashkil etishga innovatsion yondashuvning muhim jihatlari yoritilgan. “Innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” tushunchasi ning mazmun-mohiyati chet el olimlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. O‘qituvchi faoliyatini tashkil etishga innovatsion yondashuvni Reklama metodi asosida tashkil etish afzalliklari bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещаются важные аспекты инновационного подхода к организации педагогической деятельности. Проанализирована сущность понятия «инновация» и «инновационная деятельность» с точки зрения зарубежных ученых. Описаны преимущества организации инновационного подхода к организации деятельности учителя на основе рекламного метода.

SUMMARY

This article highlights the important aspects of the innovative approach to the organization of teacher activity. The essence of the concept of «innovation» and «innovative activity» was analyzed from the point of view of foreign scientists. The advantages of organizing an innovative approach to the organization of teacher activity based on the advertising method are described.